

**ZAMONAVIY PEDAGOGIKA: INGLIZ TILINI O'RGATISHDA AXBOROT  
TEXNALOGIYALARINING AHAMIYATI****Jo'raqulova Mo'tabar Tursunkulovna**

joraqulovamotabar3@gmail.com

Jizzax viloyati Yangiobod tumani 10-sonli mактабning

Ingliz tili va rus tili o'qituvchi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada , Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'qitish va IT ga qaratilayotgan alohida e'tibor, Ingliz tilining zamonaviy metodlari,xorijiy tillarni o'qitishda axborot texnologiyalarining ahamiyati kabi mavzularda so'z boradi

**Kalit so'zlar:** ingliz tilini o'qitish,axborot kommunikatsiya texnologiyalari,maxsus platformalar, Don't hard work, but do mental work

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются такие темы, как особое внимание, уделяемое преподаванию иностранных языков и информационным технологиям в нашей стране, современные методы преподавания английского языка, а также значение информационных технологий в обучении иностранным языкам.

**Ключевые слова:** преподавание английского языка, информационно-коммуникационные технологии, специальные платформы, Не работайте усердно, а занимайтесь умственной работой

**Abstract:** This article discusses topics such as the special attention paid to foreign language teaching and IT in our country, modern methods of teaching English, and the importance of information technologies in teaching foreign languages.

**Keywords:** Teaching English, ICT, Special Platforms, Don't Work Hard, Do Smart Work

**KIRISH**

XXI asr axborot texnologiyalari asri. Dunyo miqyosida qaraydigan bo'lsak internet:global dunyo yer yuzi aholisining asosiy ma'lumot oluvchi manbaiga aylanib ulgurgan. Bu borada ma'lumot almashinuvini yanada oson va qulay shakllantirish, qolaversa ma'lumotning aniqligini ta'minlash, foydalanuvchini to'g'ri ma'lumot o'zlashtirayotganini bilish muhimdir. Aynan shu holatda foydalanuvchilar savodxonligini oshirish:o'quvchilarga ingliz tilini yanada chuqurroq o'rgatish bugungi kunning asosiy talablaridan biridir.Agarda o'quvchilarga ingliz tilida kuchli bilim beradigan bo'lsak,ular bemalol raqamli texnologiyalar orqali turli sohalarda dunyo bilan tenglasha oladigan mutahasislar bo'lib yetishishi, boshqa mamlakatdagi tengdoshlari bilan fikr almashish va turli bilimlarni o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar.Qolaversa til bilgan yoshlarimiz o'zlarini o'zlarini band qilishlari – masofadan turib ham xorij kompaniyalarida ishga joylashishlari, malaka oshirishlari va mamlakatimiz rivojiga o'z hissalarini qo'shishlari mumkin.

Zamonaviy dunyo: xorijiy til- ingliz tilini mukammal bilish va axborot texnologiyalari sohasi. XXI asrda barcha sohalarning tub tubiga kirib borgan, har bir sohaning mutahasisi bo'lish uchun talab etiladigan bu ikki yo'nalishni o'quvchilarga o'rgatishda mamlakatimizda davlatimiz rahbari tomonidan alohida e'tibor berilmoqda. Prezidentimiz boshchiligidagi 2021-yil 6-may kuni

o'tkazilgan videoelektor yig'ilishida chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish bo'yicha keljak uchun mustahkam poydevor yaratish zarurligi ta'kidlandi. 2024-yil 27-iyunda qabul qilingan PQ-239-sonli qarorda yoshlarni xorijiy tillarga, jumladan, ingliz tiliga o'qitish tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari belgilandi. Unga ko'ra, 2024-yil yakuniga qadar ingliz, nemis, fransuz, ispan, koreys, xitoy va yapon tillarini B2 darajasida biladigan yoshlar sonini 100 ming nafarga yetkazish maqsad qilindi. Shuningdek, 2024/2025 o'quv yilidan boshlab ta'lif muassasalarida chet tili darslarida videomahsulotlardan, jumladan, "Ibrat farzandlari" platformasidan keng foydalanish yo'lga qo'yilishi rejalashtirilgan. Bu esa o'quvchilarning xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini o'rganish bo'yicha ko'nikma va malakalarini oshirishga xizmat qiladi. Prezidentning bu boradagi tashabbuslari yoshlar orasida ingliz tili va axborot texnologiyalarini o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshirish, ularga professional darajada til o'rgatish, ta'lif sifatini yuksaltirish va xalqaro maydonda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga qaratilgan. Bu ikki yo'naliish: axborot texnologiyalari va ingliz tili bir biriga chambarchas bog'liqidir. Bugungi kunda axborot texnologiyalari zamonaviy ta'limning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Ingliz tilini o'qitishda texnologiyalardan foydalanish nafaqat dars jarayonlarini soddallashtiradi, balki o'quvchilarni tilni samarali o'rganishga ham undaydi. Axborot texnologiyalari yordamida ingliz tilini o'qitish ta'lif jarayonini zamonaviylashtirish va samaradorligini oshirish uchun kuchli vosita hisoblanadi. Ayniqsa, ingliz tilini o'qitishda texnologiyalar interaktivlik, qiziqarlilik va natijaviylikni oshiradi. Maktab darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning motivatsiyasini oshirib, ularning tilni amaliy o'zlashtirishiga katta yordam beradi. Dars davomida axborot texnologiyalaridan foydalangan holda darsni tashkillashtirish jumladan, multimedia vositalarini qo'llash, onlayn resurslardan foydalanish va ijodiy yondashuv o'quvchilarni til o'rganishiga bo'lgan qiziqishini yanada oshirayotganini ko'rishimiz mumkin. O'quvvchi tomonidan o'quvchilarga ingliz tilini axborot kommunikatsiyalari orqali o'rganishda yo'naliish berish, xususan to'g'ri ta'lif platformalaridan foydalanishga yo'naltirish muhimdir. Chunki ijtimoiy tarmoqlarda turli mavzularda manbaalar juda ko'p ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, o'quvvchi tomonidan foydali manbaalarning berilishi, kerakli resurslarga yo'naltirilishi o'quvchilarning vaqtlarini tejashiga sabab bo'ladi. Bu metodni ingliz tilida "Don't hard work, But do mental work" deb ham atashimiz mumkin. Ya'ni bugungi kunda bizdan qattiq ishslash emas, aql bilan ishslash, farzandlarimizga aql bilan tarbiya berish asosiy maqsadimizdir. O'quvchilardagi Grammatik, leksik, fonetik va turli birliklarni tushunmaslik kabi muammolarni ingliz tili ishlangan multfilmlar, podcastlar, kino yoki seriallarni shunchaki e'tibor bilan tomosha qilish orqali yahshi natijaga erishish mumkin. Bundan tashqari bu yo'naliish o'quvchilarda listening- tinglab tushunish qobiliyatlarini ma'lum darajaga oshirishga yordam beradi. Podcastlar: xususan BBC learning English ingliz tilidagi xorijiy yangiliklar kanali ham listening qobiliyatini oshirishga, ham kun davomida turli yangiliklarni tinglab, dunyo to'g'risida yangidan yangi ma'lumotlar olib fikr lashini kengayishiga ham sabab bo'ladi. Ya'ni Ingliz tilidagi yangiliklar va eshittirishlarni tinglash, o'quvchilarga nafaqat tilni, balki global voqealarni tushunishga ham yordam beradi. Dars davomida ushbu podcastlarni sekinlashtirib eshitib, o'quvchilar bilan birgalikda tahlil qilib, tarjimasini birma bir tushuntirib borish ingliz tili bilimlarini borgan sari yahshilanib borishiga asos bo'ladi. "EnglishClub", "BBC Learning English", "Elllo" kabi veb-saytlar interaktiv audio mashqlarni taklif etadi, bu orqali o'quvchilar tinglagan materialni tezda tahlil qilish va sinovdan o'tishlari mumkin. Video va audio materiallardan tashkil topgan o'quv darsliklari, masalan, Duolingo yoki Rosetta Stone, tinglash ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi.

**Repeat listening:** Materialni bir nechta marta tinglash, so'ngra mazmunini qayta tiklash va tahlil qilish orqali o'quvchilar yanada chuqurroq tushunish va eslab qolish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

**Dictation - Tinglash va yozib olish:** Tinglagan materialdan muhim so'zlar yoki gaplarni yozib olish, bu metod o'quvchiga tinglaganini eslab qolishga yordam beradi va grammatika va lug'atni mustahkamlashga imkon yaratadi.

O'quvchilarni testlar orqali tinglashda baholash ularning yutuqlarini ko'rishga yordam beradi. Bu testlar nafaqat umumiy tushunishni, balki aniq ma'lumotni aniqlash va tushunish ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'quvchilarni tinglagan materialga asoslanib savollarga javob berishga undash. Bu, ayniqsa, interaktiv ingliz tili sinflarida samarali bo'lishi mumkin. Bu esa tinglash qobiliyatini tizimli tarzda oshirishga yordam beradi.

Ingliz tilida tinglash ko'nikmalarini rivojlantirish, o'quvchilarga nafaqat yaxshiroq til bilish, balki global muloqotda ham muvaffaqiyatli bo'lish imkonini yaratadi. Yangi texnologiyalar va interaktiv metodlar yordamida o'quvchilarni jadal rivojlantirish va ularning lingvistik ko'nikmalarini yahshilaydi.

Shuni ta'kidlash joizki, Ingliz tilini bu standartlar orqali o'qitilganda o'quvchilar IELTS/TOEFL kabi xalqaro imtihonlarning tinglab tushunish sinovlarida yahshi natijalar ko'rsatishlari mumkin. Bu ko'nikmalar o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi uchun ham, kelajakda hayot yo'llarida o'z o'rnini topishiga ham, karyerasini yo'lga qo'yishda ham dasturi amal vazifasini o'taydi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bir so'z bilan aytganda zamonaviy pedagogika standartlari: axborot texnologiyalarini chambarchas bog'langan holda dasrlar o'tish odatiy dasr strukturalardan anchagina farq qiladi. Qolaversa, axborot texnologiyalariga bog'langan zamonaviy pedagogika standartlari odatiy dass o'tish shaklidan ancha samaralidir.

Xulosa qilib aytganda, Onlayn podkastlar, videolar, audiokitoblar va mobil ilovalar kabi interaktiv vositalar tinglashda o'quvchilarning diqqatini jalg qilish va ular bilan faol muloqot qilish imkonini yaratadi. Shuningdek, tinglab tushunish ko'nikmalarini o'rganish uchun qayta tinglash, eslatmalar olish va tahlil qilish kabi metodlar samarali qo'llaniladi.

Axborot texnologiyalari yordamida o'qituvchilar tinglab tushunish mashqlarini turli darajalarda taqdim etish, o'quvchilarning individual ehtiyojlariga mos ravishda darslarni tashkil qilish va o'quvchilarning qiziqishini oshirishda katta imkoniyatlarga ega. Bu esa o'z navbatida ingliz tilini o'rganish jarayonini samarali va qiziqarli qiladi.

Shu bilan birga, axborot texnologiyalarining ingliz tilini o'rgatishdagi roli nafaqat tinglab tushunish ko'nikmalarini oshirishda, balki umuman ta'lim jarayonini modernizatsiya qilishda, o'quvchilarga o'z o'quv tajribalarini boshqarish va mustaqil ravishda til o'rganishga rag'batlantirishda muhim omildir.

### Foydalangan adabiyotlar:

1. **A. K. Xudoyberdiyeva.** "Axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ingliz tilini o'qitish metodlari". CyberLeninka. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/axborot-texnologiyalaridan-foydalangan-holda-ingliz-tilini-o-qitish-metodlari>.

2. Ur, P. Teaching Listening Comprehension. Cambridge University Press, 1984.  
Tinglab tushunish ko‘nikmalarini o‘rgatish bo‘yicha metodik qo‘llanma.
3. I. I. Muminov. "Chet tili darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish". CyberLeninka.  
URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/chet-tili-darslarida-axborot-texnologiyalaridan-foydalanish>.
4. R. T. Yusupova. "Zamonaviy ta’limda axborot texnologiyalarining ahamiyati". Ilmiy anjumanlar. URL: <https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0019/3.24.pdf>
5. G. N. Rasulova. "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta’lim jarayonidagi o‘rni". Moluch.ru. URL: <https://moluch.ru/archive/305/67899/>
6. [ZiyoNET › Библиотека](#)
7. [TUIT library](#)